

KREATIV YONDASHUVDA O'QUVCHINING QIZIQISHI, QOBILIYATI VA BILIM DARAJASINI HISOBGA OLISH MASALALARI

Bo'riboev Shahzodbek Azimjon o'g'li

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy Pedagogika Universiteti Pedagogika-
psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti Pedagogika talim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, o'quvchilarning qiziqishlari, tug'ma va orttirilgan qobiliyatlari hamda mavjud bilim darajalarini chuqur o'rganish asosida ularning ta'lim jarayonidagi faolligi va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *individual yondashuv, kreativ ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial o'qitish, o'quvchi qobiliyati, o'quvchi qiziqishi, ko'p intellekt nazariyasi, Gardner nazariyasi, Vygotskiy ta'lim nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasi, interaktiv metodlar, STEAM ta'limi, pedagogik texnologiyalar, motivatsiyani oshirish, kreativ fikrlash.*

Аннотация: *Статье всесторонне анализируются вопросы организации учебного процесса с учетом индивидуальных особенностей учащихся. В частности, рассматриваются пути повышения активности и эффективности учащихся на основе глубокого изучения их интересов, врождённых и приобретённых способностей, а также существующего уровня знаний. В статье представлены как теоретические взгляды, так и результаты практических исследований, а также опыт преподавателей.*

Ключевые слова: *индивидуальный подход, креативное образование, личностно-ориентированное обучение, дифференцированное обучение, способности учащихся, интересы учащихся, теория множественного интеллекта, теория Гарднера, образовательная теория Выготского, зона ближайшего развития, интерактивные методы, STEAM-образование, педагогические технологии, повышение мотивации, креативное мышление.*

Annotation: *This scientific article provides a comprehensive analysis of organizing the educational process based on the individual characteristics of students. In particular, it explores ways to increase students' engagement and effectiveness through in-depth examination of their interests, innate and acquired abilities, and existing knowledge levels.*

Keywords: *individual approach, creative education, learner-centered teaching, differentiated instruction, student abilities, student interests, multiple intelligences theory, Gardner's theory, Vygotsky's educational theory, zone of proximal development, interactive methods, STEAM education, pedagogical technologies, motivation enhancement, creative thinking.*

KIRISH

Ta'lim tizimi har bir shaxsning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir o'quvchi o'zining qiziqishi, qobiliyati va bilim darajasi bilan boshqalardan farqlanadi. An'anaviy yondashuvda barcha o'quvchilarga bir xil ta'lim berilishi natijasida ba'zi o'quvchilar orqada qolib ketishi, boshqalari esa zerikishi mumkin. Zamonaviy ta'limda esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – ya'ni individual yondashuv alohida o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish masalasi o'rganiladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida konstruktivistik yondashuv asosida ta'lim mazmunini yangilash va har bir o'quvchining shaxsiy salohiyatini to'liq ochib berish dolzarb masalaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "inson manfaatlariga yo'naltirilgan ta'lim"[1] tamoyili asosida bu jarayon yanada kuchaymoqda. Individual yondashuvning asosiy mohiyati shundan iboratki, pedagog har bir o'quvchini alohida o'rganib chiqadi: uning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasi, bilimlar darajasi, qobiliyatlari, xarakteri, ijtimoiy holati va boshqa ko'plab omillar tahlil qilinadi. Shundan so'ng, pedagog bu ma'lumotlarga tayanib, darsning mazmuni va shaklini moslashtiradi.

Ta'lim jarayonida kreativ yondashuvning ustuvorligi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini – qiziqishlarini, qobiliyatlarini va bilim darajalarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Zamonaviy pedagogikada bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kon sepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, H. Gardner tomonidan ilgari surilgan ko'p intellekt nazariyasi har bir o'quvchining o'ziga xos intellektual qobiliyatlariga asoslanib, farqlangan o'quv uslublarini ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek, differensial ta'lim tamoyili asosida o'quvchilarning mavjud bilim darajasi aniqlanib, individual o'zlashtirish darajasiga mos didaktik materiallar va metodikalar tanlanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish esa o'quvchilarning erkin fikr bildirishlari, yangi g'oyalarni ilgari surishlari va muammolarga innovatsion yondashuv asosida yechim topishlariga imkon yaratadi. Bunday yondashuvda interaktiv metodlar – muammo asosli ta'lim, debat, loyiha asosida o'qitish, klasterlar, aqliy hujumlar, STEAM elementlari – o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi hamda mustaqil ijodiy fikrlashga yo'naltiradi. Shu bois, har bir o'quvchining psixologik-pedagogik portretini o'rganish, uning didaktik ehtiyojlariga mos o'quv strategiyalarini tanlash – kreativ yondashuvning negizini tashkil etadi. Kreativ yondashuvda individual xususiyatlarni hisobga olish bo'yicha nazariy asoslarini umumiy bir jadvalga yig'ildi.

1-jadval.

Kreativ yondashuvda individual xususiyatlarni hisobga olish bo'yicha nazariy asoslari

№	Asosiy tushuncha / yondashuv	Nazariy asoschi / olimlar	Mazmuni
1	Kreativ yondashuv	G. Torrance, E. de Bono, M. Fullan	O'quvchilarda erkin fikrlash, yangilik yaratish va muammolarga noodatiy yondashuvni shakllantirish usuli.
2	Qiziqishlarni hisobga olish	J. Dewey, L. Vygotsky	Ta'lim mazmunini o'quvchining ichki motivatsiyasi va shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirish.
3	Qobiliyatga mos ta'lim	H. Gardner (Ko'p intellekt nazariyasi)	Har bir o'quvchining tug'ma yoki rivojlanayotgan qobiliyatlariga mos individual o'quv strategiyalarini qo'llash.
4	Bilim darajasiga asoslangan differensial yondashuv	C. Tomlinson, B. Bloom	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlab, o'zlashtirish tezligi va darajasiga qarab ta'limni moslashtirish.
5	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim	K. Rogers, J. Piaget	Har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, rivojlanish darajasini inobatga olgan ta'lim.
6	Interaktiv va innovatsion metodlar	M. Rosenberg, A. Azizxo'jayev	O'quvchi faolligini oshiruvchi, ijodiy va interaktiv o'qitish texnologiyalari: muammo asosli o'qitish, rol o'yinlari, STEAM yondashuvi va b.

Adabiyot tahlili. Ta'lim jarayonini o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va bilim darajasiga mos ravishda tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'plab pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida amalga oshirilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va differensial yondashuv masalalari XX asr ning o'rtalaridan boshlab jahon pedagogikasida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Vigotskiy, Bruner va Gardner kabi mashhur olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ta'limning individual yondashuvga bo'lgan ehtiyojini ta'kidladi.

Vygotskiy o'zining ijtimoiy konstruktivizm nazariyasida o'quvchi faolligini va o'rganish jarayonida uning jamiyat bilan aloqasini alohida ko'rib chiqadi. U ta'limda o'quvchining tashqi yordamga ehtiyoji borligini va uni o'rganishda muhitning roli muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek, uning "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi, o'quvchiga qanday qilib individual yordam ko'rsatish kerakligini tushunishda yordam beradi.[4] Bruner esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini va motivatsiyasini shakllantirishga katta e'tibor qaratgan. U ta'limning shaxsga moslashtirilishi zarurligini, bu jarayonning nafaqat bilim olishni, balki o'quvchining mustaqil fikrlash va kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligini ta'kidladi. Brunerning "o'rganishning spiral" modeli har bir o'quvchiga o'z vaqtida moslashtirilgan, qiziqarli va rivojlantiruvchi materiallar taqdim etishga imkon beradi.[5] Howard Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi ham ta'limda individual yondashuvning muhimligini ko'rsatadi. Gardnerning fikriga ko'ra, har bir o'quvchining o'ziga xos intellektual salohiyati bo'lib, bu salohiyatni rivojlantirishda an'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda shaxsga moslashtirilgan yondashuv zarur. U 8 ta turli intellektual salohiyatni (musiqiy, lingvistik, matematik, makoniy, va boshqalar) aniqlab, o'qituvchilarni har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga chaqirgan.[6] O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishida ham bu tamoyillarning

o'zgarishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "inson manfaatlariga yo'naltirilgan ta'lim" tamoyili doirasida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga javob beruvchi yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.[1]

O'zbekiston ta'limi hozirgi kunda global pedagogik tamoyillarni o'zlashtirishda va yangi innovatsion texnologiyalarni o'z ta'lim tizimiga integratsiya qilishda muhim qadamlarni tashlamoqda. Shu maqsadda, xalqaro tajriba, jumladan, Finlandiya, Yaponiya va Janu biy Koreya kabi davlatlarning ta'lim tizimlarida individual yondashuvni joriy etish tajribalari ham o'rganilmoqda. Xususan, Azizxo'jayev pedagogikada differensial yondashuv va individual ta'limni tashkil etishning metodik asoslari haqida fikr yuritadi. U shaxsga mos o'quv rejalarini ishlab chiqish, har bir o'quvchining rivojlanish darajasini nazorat qilish, shuningdek, o'qituvchining metodik va psixologik bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish zarurligini ta'kidlaydi.[7] Turayev o'zining zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida yozgan asarida interaktiv metodlarni, AKT vositalaridan foydalanishni individual yondashuvni amalga oshirishda qanday kengaytirish mumkinligi haqida batafsil bayon qiladi.[8] Shu bilan birga, Djalolov o'quvchilarning individual rivojlanishiga yo'nal tirilgan darslar haqida yozgan maqolasida o'quvchilarning salohiyatini to'liq rivojlantirish uchun o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati, ta'lim jarayonida individual tahlil va baholashning ahamiyatini ta'kidlaydi.[9]

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'limda individual yondashuv na faqat o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantiradi, balki ularning kreativ salohiyatini ochish, mus taqil fikrlashini rivojlantirish va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Shuningdek, peda goglar tomonidan individual yondashuvni amaliyotga tadbqiq qilishda o'qituvchining professional tayyorgarligi, metodik va psixologik bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni o'quvchilarni individual rivojlantirishda qo'llash jarayoni ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Metodologiya. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va bilim darajasini hisobga olishning metodologik asoslari pedagogik amaliyotning sifatini oshirish, o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini ta'minlash va ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun juda mu himdir. Ushbu maqolada ta'limni individual yondashuv orqali tashkil etishning asosiy metodologik tamoyillari, metodlar va texnikalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi yondashuvlar tanlangan:

Maqolada ilgari surilgan fikrlar va g'oyalar turli ilmiy manbalar va adabiyotlardan olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan. Nazariy tadqiqot metodlari orqali o'quvchilarning individual xususiyatlari, ta'lim tizimining turli yondashuvlari va pedagogik tamoyillarning umumiy tasnifi o'r ganilgan. Bu metod yordamida o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi, qobiliyatlari va bilim darajasini aniqlashning ilmiy asoslari keltirilgan.

Metodologiyaning ikkinchi asosiy qismi empirik tadqiqotlar bo'lib, ular o'quvchilarning qiziqishlarini, qobiliyatlarini va bilim darajasini o'lchashga qaratilgan. Ushbu metodda so'rovnoma lar, intervyular, kuzatuvlar va psixologik testlar yordamida o'quvchilarni individual ravishda baholash amalga oshirilgan. So'rovnoma lar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini, ularning qiziqish larini va o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini aniqlashda foydalanilgan. Bunda, o'quvchilarni guruhlariga ajratib, turli metodlardan foydalangan holda ularga moslashtirilgan darslarni o'tkazish va natijalarni tahlil qilish orqali individual yondashuvning samaradorligi aniqlangan.

Ta'lim jarayonida individual yondashuvni joriy etishning samaradorligini tekshirish maqsadida eksperiment metodlari ham qo'llanildi. Bu metod orqali an'anaviy ta'lim va individual yondashuv asosidagi ta'limning farqlari o'rganildi. Eksperimentning dastlabki bosqichida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va bilim darajasi o'lchangan, keyinchalik o'quvchilarga moslashtirilgan dars lar o'tkazildi va o'quvchilarning muvaffaqiyatlari, motivatsiyalari va shaxsiy rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Bu jarayon o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini yaxshilash uchun darslar va metodlarni yanada optimallashtirishga yordam berdi.

Natijalar. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishning samaradorligi bir nechta eksperimentlar va empirik tadqiqotlar yordamida o'rganildi. Tadqiqot natijalari individual yondashuvning o'quvchilarning motivatsiyasi, o'rganish ga bo'lgan qiziqishi va akademik muvaffaqiyatlariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Quyida tadqiqotda olingan asosiy natijalar keltirilgan:

1. O'quvchilarning motivatsiyasining oshishi. Eksperiment davomida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar, ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. O'quvchilar o'zlariga moslashtirilgan materiallar va dars uslublari orqali o'rganish jarayonida yanada faollashdilar. So'rovnoma lar va intervyular natijasida o'quvchilar o'zlariga qiziqarli va foydali bo'lgan darslarda ishtirok etganliklarini ta'kidlashdi. O'quvchilar o'zlarining bilim olish jarayonida o'zgaralar bilan taqqoslaganda o'zlarini ko'proq qulay va ishonchli his qildilar.

2. Bilim darajasining ortishi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilim darajasi aniq yaxshilandi. Eksperimentdan o'tkazilgan o'quvchilarning bilim darajasi ni o'lchash natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar o'zlashtirish jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishganlar. Sinovlar, testlar va imtihonlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi baholandi. O'quvchilarning ilmiy natijalari an'anaviy yondashuv asosidagi sinflar bilan solishtirganda yuqori bo'ldi.

3. O'quvchilarning qobiliyatlari va kreativ fikrlashining rivojlanishi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari o'quvchilarning kreativ salohiyatini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ijobiy natijalarga olib keldi. O'quvchilar o'zlarini erkin ifoda etishda, yangi g'oyalar va yechimlar ishlab

chiqishda yanada ishtirokchan bo'ldilar. Eksperimentda o'quvchilar o'zlari tanlagan mavzularni chuqur o'rganishga va o'z qarashlarini kengaytirishga ko'proq qiziqish bildirdilar. Natijada, o'quvchilarning fikrlash va ijodiy yondashuvlari ancha boyidi.

Muhokama. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va bilim darajasini hisobga olish, shubhasiz, ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari, ayniqsa, individual yondashuvning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Bu bo'limda olingan natijalar tahlil qilinib, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va imkoniyatlari haqida kengroq muhokama olib boriladi. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchayti rish ta'limning muhim maqsadlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yonda shuv, ya'ni o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish, ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. So'rovnomal va intervyular orqali olingan fikrlar shuni tasdiqladiki, o'quvchilar o'zlariga moslashtirilgan darslar orqali ta'lim jarayonida ko'proq ishtirok etadilar, bu esa ularning o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatini kuchaytiradi. O'quvchilarni o'z qiziqishlariga mos keladigan materiallar va metodlar bilan ta'minlash, ularga o'zlarini erkin his qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa natijada ularning o'rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun bu yangi metodlar yordamida o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini to'g'ri tushunish va ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Individual yondashuv asosida o'quvchilarning bilim darajasining oshishi, ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi individual yondashuv yordamida ancha yuqori bo'ladi. Eksperimentlar natijasida o'quvchilarning testlar va imtihonlardagi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Bu, o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan darslar ularning muvaffaqiyatlarini oshirganini anglatadi. Bunday yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy qilish, o'quvchilarni nafaqat bilim bilan ta'minlash, balki ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va kelajakda yanada muvaffaqiyatli bo'lishlariga imkon yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va bilim darajasini hisobga olish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv, shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga, kreativ fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga hamda ularning jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Kelajakda, ta'lim tizimida individual yondashuvni joriy qilish, ta'lim sifatini yanada yaxshilashga olib kelishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан

соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармони // www.lex.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Умумий ўрта таълимда шахсга йўналтирилган ёндашув концепцияси. – Т.: ХТВ, 2022. – 34 б.

3. Выготский Л. С. Развитие высших психических функций // Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6 т. – М.: Педагогика, 1982. – Т. 1. – С. 91–106.

4. Брунер Дж. К. К теории обучения / Пер. с англ. – М.: Просвещение, 1977. – 206 с.

5. Гарднер Г. Структура разума: теория множественного интеллекта / Пер. с англ. – М.: URSS, 2007. – 512 с.

6. Азизхўжаев А. Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2003. – 183 б.

7. Тураев М. Замонавий таълим технологиялари: назария ва амалий кўникмалар. – Т.: Ўқитувчи, 2021. – 240 б.

8. Жалолов Ж. Ж. Олий таълимда индивидуал ёндашув асослари. – Т.: Фан ва технология, 2010. – 196 б.

9. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 45 p.

10. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – 4th ed. – New York: Teachers College Press, 2007. – 336 p.

11. Tomlinson C. A. How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. – Alexandria, VA: ASCD, 2001. – 128 p